



MDH OLIMLARI TOMONIDAN BILINGVIZM MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIGI.

Pulatova Gulnoza
Murodilovna

FarDU, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi
pulatovagulnoza2@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bilingvizmning paydo bo'lish zamirida turli xalqlar orasidagi til kontaktlariga bo'lgan ehtiyojning borligi, tillarning ozaro chatishuvi ta'siri, MDH oilimlarining ham mazkur hodisalarni yanada chuqur va atroflicha, mukammal tadqiq etilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlari: Til, til kontaktlari, bilingvizm, lingvistik, sinxroniya, diaxroniya, etnografiya, polilingvizm.

Аннотация: В данной статье объясняется необходимость языковых контактов междуразными народами на почве возникновения билингвизма, влияние языковых скрещиваний, более глубокое и детальное, совершенное исследование данных явлений и семьями СНГ.

Ключевые слова: Язык, языковые контакты, билингвизм, Лингвистика, синхрония, диахрония, этнография, полилингвизм.

Annotation: This article describes the need for language contacts between different peoples in the time of the emergence of bilingualism, the effect of intersectional interaction of languages, a more in-depth and comprehensive, excellent study of the phenomena of the CIS.

Keywords: language, language contacts, bilingualism, linguistics, Synchrony, diachrony, ethnography, polylinguism.

Psixologiya o'rganayotgan barcha mavzulardan farqli ravishda, bilingvizm alohida ajralib turadi. Shu sabab bilingvizmni tadqiq etishning asosiy muammosi aholi orasidauning nisbatini aniqlashdan iborat. Bilingvizm ayrim tadqiqotlarda "hayoti davomida doimiy ravishda ikki tilda ravon so'zlashadigan insonlar" sifatida tavsiflanadi.

Bilingvizm Ikki tillilik — ikkitilni yoki muayyan adabiy til va uning dialektini mukammal bilishdir. Buijtimoiy talab yoki biror sabab bilan yuzaga keladi. Uning tabiiy vujudga kelishiga bir davlathududida ikki va undan ortiq xalq vakillarining jips yashashi ham sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda bilingvizmning kognitiv afzalligi juda muhim hisoblanadi. Ammo o'z vaqtida blingvizm ekspertlarni lol qoldirgan. Sababi XX asrning 60-yillarigacha ikki tillilik, tillar orasida doimiy o'tishga kerak bo'lgan energiyani sarflagani uchun, bola rivojlanishni sekinlashtiradigan to'siq deb hisoblangan. Ushbu nuqtayi nazar birinchi navbatda noto'g'ri bo'lgan ilmiy ishlarga asoslangan edi. Oxirgi

paytdagi tadqiqotlar bir necha til bilish insonning qaror qabul qilish, vazifalar o'rtasida o'tish, e'tiborni jamlash kabi fazilatlarini rivojlanishiga olib kelishini tasdiqlab berdi.[7]

Psixolingvistik yondashuv psixologik yoki sotsiolingvistik yondashuv bilan birgalikda olib boriladi. Bilingvizmni o'rganishda sotsiolingvistik yondashuv bilingvlar asarlari nutqining xarakteriga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashni taqozo qiladi. Y.Deshiriev ta'kidlashicha, bilingvizmni kompleks tadqiq qilishdan maqsadbilingvistik materialni ijtimoiy differensiallashgan tavsiflashdir [2.28-33].

Ushbu nuqtayi nazarni rivojlantirib, S.Treskova ko'rsatishicha, sotsiolingvistikada o'lchovning asosiy prinsipi sifatida ko'p lingvistik va sotsial o'zgaruvchan birliklarning ko'p darajali munosabatini kompleks tarzda o'lchash prinsipi hisoblash kerak. Bu prinsip lingvistik variativlikni sinxroniya va diaxroniyada uning nutqning og'zaki va yozma shakllarining har xil turlarining tillar, dialektlar, idiolektlar namoyon bo'lishini hisobga olgan tahlil qilishda qo'llaniladi [5.7].

Y.Vereshchagin qarashlari til aloqalari yo'nalishining asosiy muammolaridan biri hisoblangan lingvistik interferensiya tadqiqi uchun yo'l ochib beradi. Biz Y.Vereshchagin qarashlari asosida va undan farqliravishda, lingvistik mezon yordamida interferensiya masalalarini yoritamiz. Y.Vereshchagin bilingvizm ko'rinishlarini psixologik nuqtayi nazaridan tasnif qiladi va interferensiya masalalarining lingvistik mohiyati tadqiqotchi nazaridanchetda qoladi. Shunday bo'lsa-da, uning bilingvizm xususidagi psixologik qarashlari lingvistik interferensiya tadqiqi uchun fundamental baza vazifasini bajaradi. [6.162.]

G.M.Vishnevskaya Ikki tilning o'zaro aloqalarini V.Vaynrayxning tasnifi bilan asoslaydi. V. Vaynrayx ikki tillilikni uchga tasniflashni taklif qiladi:

A) til tizimlarining o'zaro bog'liqligi, ya'ni aralash; - subordinativ (mavjud bo'lgan ikki tillilik maktab ta'limidagi kabi dominant til, fikrlash tili chet tili), ya'ni sub'ekt bir tilni boshqasidan yaxshiroq biladi.

B) Muvofiqlashtiruvchi (unda dominant til yo'q, ya'ni ikki tilli turli tillarni teng darajada erkin biladi, bu tur odatda immigratsiya holatida rivojlanadi) ikkala tildan foydalanish darajasi, ya'ni faol (mavzu ko'proq yoki kamroq muntazam ravishda ikkala tilga murojaat qiladi) va passiv (ko'pincha tillardan biriga murojaat qiladi);

C) til muhitining mavjudligi, ya'ni aloqa (quyidagilar bilan kuzatiladi. Ona tilida so'zlashuvchilar bilan ikki tilli aloqani saqlab qolish).

Bilingvizm murakkab muammolardan biri hisoblanadi va uni kompleks tarzda tadqiq qilish zaruriyati muhimdir. Bilingvizmning integrallashgan nazariyasini yaratish zaruriyati ko'p olimlar tomonidan tan olinadi va ba'zi tadqiqotlarda ikki tillilik muammosiga kompleks yondashuvga harakat qilingan. M.M.Mixaylova fikricha, bu o'rganilayotgan obyekt (ikki tillilik) kompleks ilmiy muammo hisoblanishi va uni o'rganishda tutash va tutash bo'lmagan fanlar – lingvistika, psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, pedagogika, adabiyotshunoslik – metodlarini qo'llashga to'g'ri keladi. M.M.Mixaylov esato'rt aspektga ajratadi: bevosita lingvistik, psixologik, ijtimoiy-siyosiy va o'quv-uslubiy turlarga ajratadi [3.72].

A.Karlinskiy bilingvizmni o'rganishda uch aspekt – lingvistik, sotsiolingvistik va psixolingvistik turlarga ajratadi. A.E.Karlinskiy yozadi: "bilingv nutqiy xulq-atvorini tavsiflovchi sabab-oqibatmunosabatlarning zanjirini aniqlash kerakligi va

ushbu zanjir oxiriga chuqur psixik jarayonlarning namoyishi hisoblangan uning nutqiy asarlarini qo‘yish zarurligini ta’kidlaydi”[3.180].

A.Zalevskeya, I.Medvedeva ikki tillikka o‘qitish tizimi o‘qituvchining professionaal mahorati va ish uslubi bilan bog‘langanligini ta’kidlaydilar..Bu esa ikki tillilikni tilshunoslik va sotsiologik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishni anglatadi. Endilikda ikki tillikni psixologik jihatdan o‘rganishga murojaat qilish zarurdir.Psixologik o‘rganish puxta tahlil qilishni talab etadi. Ikki tillilikni shakllantirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor berish zarur. Jahon fanida ikkinchi tilni o‘zlashtirishda birinchi tilning roli, xato hodisalarining mohiyati va o‘ziga xosligi, tilni uzatish,”oraliq til” va boshqalar bo‘yicha turli xil nuqtayi nazarlarning shakllanish dinamikasi kuzatiladi.Til o‘zlashtirishning turli xil bilimlari va strategiyalari ko‘rib chiqiladi va talabalar tomonidan ishlatiladigan qo‘llab-quvvatlash elementlari, chet tilidagi so‘zni “jonli bilim” sifatida o‘zlashtirish va ikkinchi tilni o‘qitish jarayonida o‘qituvchining rolini o‘zgartirish vazifalariga e’tibor qaratiladi.

Y.Litvinenko o‘z tadqiqotlarida ikki tillilik har doim turli etnik guruhlar va madaniyatlarning birgalikda yashashi uchun zarur bo‘lgan hodisa bo‘lib kelgan va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda, ammo ko‘plab qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi va ba’zan turli fikrlarni keltirib chiqarishi haqida fikrlarni keltirgan. Bu monolingval madaniyatning mavjud bo‘lish imkoniyatini buzadi va shu ma’noda uni saqlab qolish uchun tashvish tug‘diradi, lekin chet ellik jamoalarning tajribasi bilan tanishish orqali madaniy doirani kengaytiradi, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish imkoniyatini oshiradi. ”Turli milliy modellarga ega gumanistik jamiyat”ni o‘rnatish imkoniyatini yaratadigan “global gumanizm”ga erishish yo‘llarini topishga intilayotgan zamonaviy dunyoda bir, hech bo‘lmaganda, ikki tillilikning ijtimoiy shakllantirishdagi rolini payqash va uni ijobiy omil sifatida baholashni istamaslik notog‘ri bo‘ladi. Chunki ikki tillik madaniyatlararo o‘zaro ta’sir millatning rivojlanishiga asos bo‘ladi [5].

Til hamisha rivojlanishdagi hodisa sifatida boshqa tillarga o‘zaro ta’sir qiladi yoki tashqi ta’sirga uchraydi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti, savdo-sotiq, madaniy va maishiy aloqalar, hattoki urush va bosqinlar ham tilga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Tillar tarixiga nazar tashlydigan bo‘lsak, tashqi ta’sir natijalarini ko‘ra olamiz. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi aksariyat so‘zlar arabcha va ruschainternatsionaldir. Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoning zabt etishi hamda ruslashtirish oqibatida o‘zbek tili leksikasida, umuman butun til tizimida kuchli ta’sir sodir bo‘ldi.

Bilingvizm, polilingvizm jarayonlarining ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz. Bu holat jahon tilshunosligida, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham mazkur hodisalarni yanada chuqur va atroflicha, mukammal tadqiq etishni taqozo etadi. Bilingvizmning paydo bo‘lish zamirida turli xalqlar orasidagi til kontaktlariga bo‘lgan ehtiyoj yotadi. Til kontaktlari turli til egalari yashaydigan hududlar umumiyligi bilan bog‘liq holatda yoki turli mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, madaniy, savdo aloqalari natijasida paydo bo‘ladi.

Professor V.I.Abaev til aloqalarini o‘rganishning ahamiyati haqida shunday yozadi: “Xalq tarixini bilish manbai sifatida tilni o‘rganayotib, biz qulay sharoitlar tug‘ilganda, quyidagi savollarga javob topa olamiz: 1. Mazkur xalq kelib chiqish

jihativdan boshqa qaysi etnik guruhlar bilan bog'langan? 2. Xalq tarixining turli davrlarida uning madaniyati qanday bo'lgan? 3. Boshqa qaysi xalqlar va tillar bilan tarixiy aloqalarga kirishgan, unga ular qanday madaniy ta'sir qilgan va o'zi ularga qanday madaniy ta'sir o'tkazgan?"

D.Babayeva o'z tadqiqot ishlarida "Nutq ostirish nazariyasi va metodikasi" til masalariga to'xtalgan. 1979-yildan boshlab to bugungi kungacha maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili va o'zga tilni (rus, o'zbek) o'qitish muammosi O'zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshqalar muammoga atroflicha yondashganlar. Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishmi alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik - o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa - ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.[1.11]

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, respublikamiz psixolog olimlari tomonidan blingvizm muammosi ikki tillilik misolida atroflicha ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, bilingvizmning boshqa shakllari va ikki tilli bolalarda ishchanlik, etnopsixologik omillar masalasi, ko'pchilik psixolog olimlar e'tiboridan chetda qolmoqda. Mazkur muammoni kichik maktab yoshi bilan o'rganish o'ta ahamiyatli sanalib, uni tadqiq etish o'quv jarayoni samaradorligini yanada oshirishga, milliy qardiyatlarimizni saqlab qolish ko'nikmalarini yanada takomillashtirishga keng xizmat qilishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Babayeva D.R. Nutq ostirish nazariyasi va metodikasi. T-Barkamol fayoz mediya nashriyoti.-2018 .11-b

2. Дешериев, Ю.Д., Протченко, И.Ф. Основные аспекты исследования двуязычия и многоязычия / Ю.Д. Дечериев, И.Ф. Протченко // Проблемы двуязычия и многоязычия: сб. науч. тр. / отв. ред. П.А. Азимов, Ю.Д. Дешериев, Ф.П. Филин. – М.: Наука, 1972. – С. 28–33.

3. Карлинский А.Э. Основы теории взаимодействия языков А.Э. Карлинский. –Алма-Ата Гылым 1990. –180 с

4. Михайлов М.М. Двуязычие в современном мире: учеб пособие /М.М.Михайлов. –Чебоксары, 1988. –72 с.

5. Литвиненко Е.Ю. Современный билингвизм как доминанта мультикульту-реальной модели социализации: Авто-реф. дис. ... д-ра социол. наук. —Б-83 Ростовн /Д2000. Богус Мира Бечмизовна 2014г. кандидат педагогических наук, доцент, доцент кафедры педагогики и педагогических технологий Адыгейского государственного университета.

6. Трескова С.И. Методика измерения в социолингвистике/ С.И. Трескова // Принципы и методы социолингвистических исследований отв. ред. А.Н.Баскаков В.Ю. Михальченко. – М.: Наука 1989. – С 7-30

7. Верещагин Е. М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия (билингвизма). М.–Берлин: Директ-Медиа, 2014. 162 с.